



UO‘K: 070.4:006.354

**DATA JURNALISTIKASI VA UNING MA'LUMOTLAR TAHLILIDA TUTGAN O'RNI  
(INTERNET NASHRLARI MISOLIDA)****ДАТА ЖУРНАЛИСТИКА И ЕЕ РОЛЬ В АНАЛИЗЕ ДАННЫХ (НА ПРИМЕРЕ  
ИНТЕРНЕТ-ПУБЛИКАЦИЙ)****DATA JOURNALISM AND ITS ROLE IN DATA ANALYSIS (BASED ON THE INTERNET  
PUBLICATIONS)****Muminov Sidikjon Mirsobirovich<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasini professori,  
filologiya fanlari doktori**Muxtorova Shahlo Dilmurod qizi<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti Jurnalistika yo'nalishi magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada jurnalistikaning so'nggi yillarda rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri – data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilidagi o'rni yoritiladi. Data jurnalistikasining O'zbekiston va xorijiy ommaviy axborot vositalarida tutgan o'rini tahlil qilishda mashhur internet nashrlarining kontentlari o'rganildi.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается одно из новых направлений журналистики последних лет — дата журналистика и его роль в анализе данных. Для анализа роли журналистики данных в узбекских и зарубежных СМИ был изучен контент популярных интернет-изданий.

**Abstract**

This article examines data journalism, one of the emerging areas of journalism in recent years, and its role in data analysis. In analyzing the role of data journalism in Uzbek and foreign media, the content of popular online publications was studied.

**Kalit so'zlar:** Data jurnalistika, axborot, data tahlili, ochiq ma'lumotlar, data vizualizatsiyasi, internet nashrlari, faktcheking, infografika, tendensiyalarni aniqlash

**Ключевые слова:** Дата журналистика, информация, анализ данных, открытые данные, визуализация данных, веб-публикация, проверка фактов, инфографика, выявление тенденций

**Key words:** Data journalism, information, data analysis, open data, data visualization, web publishing, fact-checking, infographics, trend detection

**KIRISH**

Bugungi globalashgan dunyoda axborotni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va uni ommaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu masalada har bir insonning axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash ham butun dunyoda global ahamiyat kasb etib bormoqda. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati natijasida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlari kengayib bormoqda. Yangi tahrirdagi 2022-yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq yo'l qo'yilishi qat'iy belgilab qo'yildi [1]. Bu fuqarolarning axborotga nisbatan huquqlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Axborot sohasidagi davlat siyosatida tobora ko'proq ochiqlikka e'tibor qaratilishi ma'lumotlarni qayta ishlash va tarqatish borasida ommaviy axborot vositalari (OAV)ning mas'uliyatini oshirmoqda. Ushbu sohada jurnalistikaning muhim tarmoqlaridan bo'lgan data jurnalistikasi (ma'lumotlar jurnalistikasi)ning o'rni tobora ortib bormoqda. Data jurnalistikasi keng

## TILSHUNOSLIK

turaqqiy etib borayotgan jurnalistika sohasi bo'lib, turli shakllardagi ma'lumotlarni tahlil qilish va uni ommaga qulay shaklda yetkazish maqsadida tarqatishga e'tibor qaratadi. AQSh va Yevropadagi OAVlarning yarmidan ko'pida yangiliklar bo'limida kamida bitta data jurnalist faoliyat ko'rsatadi. Data jurnalistikasi data tahlili va jurnalistika o'rtasidagi kesishgan soha bo'lib, asosan, texnologiyalardan foydalanadi [2]. Darhaqiqat, XXI asr – axborot asri bo'lib, bu davrda OAVlarining axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Data jurnalistikasi sohasida hozirga qadar yaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish, ushbu tarmoq haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. Meyer (2002) o'z tadqiqotida data jurnalistikani statistik metodlar va ilmiy tahlilning boshlangan nuqtasi sifatida ta'riflaydi. Bounegru va Gray (2021) muharrirligida nashr etilgan Data jurnalistikasi bo'yicha qo'llanmada ushbu sohaning tamoyillari va eng mashhur holat tahlillari berilgan. Qatardagi AlJazeera Media Instituti tomonidan chiqarilgan Data jurnalistikasi tanishtiruv yo'riqnomasida sohaning asosiy tamoyillari, data jurnalistlar uchun kerak bo'ladigan dasturlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilidagi o'rnini aniqlashda bir necha tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Eng avvalo, kontent tahlili orqali xorijiy va mahalliy OAVdagi data jurnalistikasi bilan bog'liq materiallar o'rganildi. Bunda New York Times, The Guardian kabi xalqaro nashrlar, shuningdek, daryo.uz, gazeta.uz, xabar.uz kabi mahalliy nashrlar faoliyati tahlil etildi. Ochiq ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlar tahliliy jihatdan o'rganildi va data jurnalistikasi uchun ahamiyati ochib berildi. Taqqoslash metodi orqali O'zbekiston amaliyoti xorij tajribasi bilan solishtirildi. Tadqiqotda sifat va tahliliy metodlar uyg'unlashtirildi. Tadqiqotda uch turdagi manbalardan foydalanildi. Birinchi navbatda, data jurnalistikasiga oid ilmiy manbalar, xususan, maqolalar, kitoblar va qo'llanmalar o'rganildi. Ochiq ma'lumotlar portallari ikkinchi turdagi manba vazifasini bajardi. Shuningdek, data jurnalistika loyihalariga misollar topish uchun media kontent tahlil etildi. Bunda yuqorida aytib o'tilgan nashrlar asosiy manbalar vazifasini bajardi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda Excel dasturining imkoniyatlarini tushuntirish uchun dasturdan data jurnalistikasida foydalanish bo'yicha ham namuna keltirildi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Data jurnalistikasi an'anaviy jurnalistikadan o'zining ma'lumotlar bilan ko'proq ishlashi bilan ajralib turadi. Kompyuterlardan axborot tayyorlashda foydalanila boshlangandan beri jurnalistlar odamlarning ma'lumotlarni tushunishi, tadqiq etishi va undagi qarashlarni ajrata olishini ta'minlaydigan turli yangi ilovalarni yaratib kelmoqda. Ma'lumotlar bilan ishlash asosiy vazifasi bo'lga yangi biznes shakllari paydo bo'lmoqda [3]. Axborot texnologiyalarining takomillashib borishi jurnalistikaning ma'lumotlar bilan ishlash sohasini rivojlantirib, ommaga tushunarli va kerakli ma'lumotlarni yetkazib berishga hissa qo'shmoqda.


Data jurnalistikasida asosiy tushunchalaridan biri kompyuter orqali hisobot berish (computer-assisted reporting) hisoblanib, bu o'tgan asrning 90-yillaridayoq dolzarb masalalardan biriga aylangan. Kompyuter orqali hisobot berish jurnalistikani shaxsiy kompyuterlar paydo bo'lishidan avvalgiga nisbatan bir necha baravar yuksaltirish imkonini bergan. Bu muxbirlarning o'zlari yoritadigan sohani o'sha soha professionallaridan ham ko'proq bilish imkonini beradigan "ekspert jurnalist"ga aylanishini ta'minlaydi [4]. Ushbu soha jurnalistikada tom ma'noda inqilob yasadi, chunki jurnalistlar har qanday sohaga oid ma'lumotlarni tahlil qilish orqali insoniyatga kerakli va qulay axborotlarni yetkazib bermoqda.

Jahon amaliyotida bir necha taniqli OAVlar data jurnalistikasi bilan shug'ullanib kelmoqda. Masalan, AQShning mashhur "The Guardian" nashri o'zining internet sahifasida maxsus Datablog deb ataluvchi bo'limga ega. Bu bo'lim data jurnalistikasi va data vizualizatsiyasiga qaratilgan. Masalan, ushbu blogda Josh Nikolas tomonidan 2025-yil 17-sentabrda chiqarilgan maqolada Avstraliya janubidagi qurg'oqchilik vujudga kelishi ehtimoli mavjud ma'lumotlar tahlili orqali keltirilgan. Maqolada, shuningdek, vizual chizmalar va grafiklardan unumli foydalanilgan. Masalan, 1-rasmda Avstraliya janubidagi har yillik o'rtacha yog'inlar miqdori kamaygani aks ettiruvchi xarita Guardian nashri tomonidan Avstraliya metereologiya byurosi ma'lumotlarini qayta ishlash orqali tayyorlangan. Bu maqolani o'quvchilar uchun ancha qulaylik yaratib, mavjud vaziyatni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Data jurnalistikasi ma'lumotlarni data vizualizatsiyasi orqali grafiklarga aylantirib, uni o'z o'quvchilari uchun qulay ko'rinishga keltiradi. AQShdagi mashhur nashrlardan yana biri New York Times ham o'z veb-saytida data vizualizatsiyasi orqali yaratilgan grafiklarni aks ettiruvchi maxsus blogga ega. Ushbu blogda 2025-yil 4-sentabrda nashr etilgan grafik Suriyada uzoq yillar hukm surgan Bashar Assad davrida yaratilgan yerosti qamoqxonasi aks etgan (2-rasm).

### Lowest rain on record

Showing rainfall for the two years to September, in deciles




Guardian graphic. Source: Australian Bureau of Meteorology

1-rasm. Avstraliyadagi ikki yillik yog'inlar miqdori aks etgan xarita. Manba: The Guardian Datablog. <https://bit.ly/3JKo7CC>



## Graphics

Data visualization, maps and other visual journalism from The New York Times Graphics Desk



### How Louisiana Built Trump's Busiest Deportation Hub

ICE wants to make immigration enforcement as efficient as FedEx or Amazon. Louisiana was poised for this moment.

By BRENT MCDONALD, CAMPBELL ROBERTSON, ZACH LEVITT, ALBERT SUN, SINGELI AGNEW and BEN LAFFIN



### A Manhattan Gunman Had C.T.E. Here Is How Doctors Search for It.

A definitive diagnosis of chronic traumatic encephalopathy, or C.T.E., can only happen



2-rasm. Bashar Assad rejimi tomonidan barpo etilgan yerosti qamoqxonasi kameralarining 3D modeli. Manba: The New York Times Graphics. <https://www.nytimes.com/spotlight/graphics>

The New York Timesning ushbu blogida boshqa muhim grafiklar data vizualizatsiyasi orqali yaratilgan bo'lib, bu jurnalistikaning ushbu tarmog'ini jahon axborot makonidagi mashhur nashrlarida allaqachon o'zining eng muhim e'tibor qaratgan yo'nalishlaridan biriga aylantirib bo'lganini ko'rsatadi.

## TILSHUNOSLIK

O'zbekiston tajribasida ham bir necha mashhur nashrlar data vizualizatsiyasi vositalaridan infografikalar yaratishda foydalanayotganini ko'rish mumkin. Eng mashhur nashrlardan gazeta.uz ko'p hollarda turli infografikalar, grafiklar va xaritalardan ma'lumot berishda foydalanadi. Masalan, 2022-yil 28-sentabrda nashr etilgan maqolada Toshkent shahridagi 1972-yildan 2021-yilga qadar bo'lgan yarim asrlik davrda yoz faslidagi harorat o'zgarishi bilan bog'liq 3-rasmdagi grafikni "O'zgidromet" ma'lumotlariga tayanib, Datawrapper yordamida tayyorlagan.

## Ташкент

за летний период с 1972 по 2021 год (в Цельсиях)



Диаграмма: «Газета.uz» • Источник: Узгидромет • Создано с помощью [Datawrapper](#)

**3-rasm. Toshkent shahrining yoz faslidagi minimal, o'rtacha va maksimal yillik haroratida 1972-2021-yillarda o'zgarishi aks etgan diagramma. Gazeta.uz rasmiy sayti. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/09/28/meteo-data/>**

O'zbekistonda internet orqali yangiliklar yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi yana bir nashr xabar.uz ham infografikalar orqali ma'lumotlar tahlilini berib boradi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida dunyo miqyosida ushbu kasallik ko'lami bilan bog'liq ma'lumotlarga talab katta bo'lgan davrda ushbu nashr vakillari 2020-yil 21-mart kuni nashr etilgan maqolada O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Jon Hopkins universiteti bergan raqamlar asosida infografikada O'zbekiston va jahondagi vaziyatni yoritib berganlar (4-rasm). Pandemiya davrida karantin bilan bog'liq vaziyat tufayli ko'pchilik ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklarni kuzatib borgan. Ushbu holatda aniq va ishonchli axborot bilan bir qatorda, xulosa chiqarish uchun tushunarli ma'lumotlarga ehtiyoj katta bo'lgan. Xabar.uz shu vaziyatda vizualizatsiya qilingan hamda O'zbekiston va xalqaro miqyosdagi vaziyatni solishtirgan muhim grafikni taqdim etish orqali omma uchun muhim kontentni tayyorlashga muvaffaq bo'lgan. Bu ushbu nashrning data jurnalistikasidan unumli foydalanganidan dalolat beradi.



4-rasm. Koronavirus (COVID-19) bo'yicha O'zbekiston va jahondagi vaziyat (21.03.2020 holatiga) aks ettiruvchi infografika. Xabar.uz rasmiy sayti <https://bit.ly/4nJAFYR>

O'zbekiston bo'yicha yangiliklar berib boruvchi daryo.uz va spot.uz nashrlarining veb-sayti o'rganilganda, ular tomonidan ham infografikalar berib borilishi aniqlandi. Lekin bu infografikalar nashrning maxsus data jurnalistlari tomonidan emas Statistika agentligi yoki Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi kabi tashkilotlar tomonidan tayyorlangan. Ushbu holatlar O'zbekistonda hali data jurnalistika sohasini taraqqiy ettirish uchun OAVlari tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilishi kerakligini ko'rsatmoqda.

Data jurnalistlar ma'lumotlarni tahlil qilish uchun bir necha ma'lumotlar manbalariga murojaat etadilar. Jurnalistlar tomonidan keng foydalaniladigan manbalardan biri turli davlat va nodavlat tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazasi (open data) hisoblanadi. Ochiq ma'lumotlar bazalariga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi tufayli ortdi. Bunda hukumatga tegishli ochiq ma'lumotlar katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlarga ko'ra, data jurnalistlarning 2/3 qismi rasmiy institutlar va hukumat tashkilotlari bergan ochiq ma'lumotlarga tayangan [5]. Bundan tashqari, data jurnalistlar faoliyati uchun rasmiy statistika muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qila oladi. Yuqorida daryo.uz va spot.uz kabi nashrlarining Statistika agentligi va boshqa hukumat tashkilotlari berayotgan statistik ma'lumotlardan foydalanishi haqida ta'kidlab o'tdik.

Data jurnalistikasi taraqqiy etib borayotganiga qaramay, bir qator muammolarga ham duch kelmoqda. Birinchi navbatda, ma'lumotlar tahlili uchun tayaniladigan manbalarning sifati va ishonchliligi masalalari jurnalistlar uchun eng jiddiy to'siqlardan hisoblanadi. Ayniqsa, matbuot erkinligi cheklangan mamlakatlarda mediaga nisbatan qat'iy qonunlar mavjud bo'lib, bu data jurnalistikasi uchun ma'lumotlar olishda to'sqinlik qiladi [6]. Noto'g'ri ma'lumotlarni tahlil qilish, o'z navbatida, ommaga yetkazilgandan so'ng xato tushunchalarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Data jurnalistlari duch keladigan muammolardan yana biri ma'lumotlarni saralash, tahlil qilish va ularni vizualizatsiya qilishga yordam beradigan dasturlarni yaxshi tushunmaslik va ulardan foydalana olmaslik bilan bog'liq. Data jurnalistlar boshqa tarmoq jurnalistlariga nisbatan axborot texnologiyalar bo'yicha yaxshi ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Yuqorida sanab o'tilgan data

## TILSHUNOSLIK

vizualizatsiyasi va tahlili uchun kerak dasturlardan tashqari, Tabula (pdf fayllardan ma'lumotlarni ajratib olish uchun), Document Cloud (hujjatlardan ma'lumotlarni chiqarib olish uchun), Google Spreadsheets, Open Refine (ma'lumotlarni tozalash va tahlil qilish uchun) kabi dasturlardan foydalanishni bilish talab etiladi [7]. Axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalana bilish bo'yicha ko'nikmalarning yetishmasligi jurnalistlarning data tahlilini amalga oshirishi va uni sifatli vizualizatsiya qilib ommaga yetkazishiga to'sqinlik qiladi.

**XULOSA**

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, data jurnalistika allaqachon zamonaviy jurnalistikaning ajralmas yo'nalishiga aylangan. Bugungi axborot asrida ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish orqali omma e'tiboriga yetkazish katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunki axborot vositalari keng tarqalgan davrda omma ongini axborot orqali manipulyatsiya qilish, misinformatsiya, dezinformatsiya, feyk (soxta) yangiliklarning ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalishi kabi hodisalar odatiy voqelikka aylandi. Ushbu salbiy holatlarni bartaraf etishda data tahlili muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston sharoitida ham data jurnalistikasi rivojlanib borayotgan tarmoq ekanligi ko'rib chiqildi. O'z navbatida, data jurnalistikasini rivojlantirish uchun bir qator masalalarni hal etish ham talab etiladi. Birinchi navbatda, kadrlar muammosini hal etish uchun maxsus data jurnalistlari tayyorlaydigan bakalavriat yo'nalishlari ochish va bu yo'nalish talabalarida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini ham rivojlantirish talab etiladi. Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazalarini kengaytirish va ularga kirish imkoniyatini oshirish kerak. Chunki ochiq ma'lumotlar (open data) jurnalistarning ko'proq ma'lumotlardan foydalanishi orqali ularni omma e'tiboriga tushunarli tarzda yetkazishiga yordam beradi.

Data jurnalistikasining buguni rivojlanish tendensiyalari va ishonchli ma'lumotlarga ehtiyojdan kelib chiqilsa, kelajakda ham bu sohaning taraqqiy etishda davom etishini kutish mumkin. O'zbekistonda ham bu soha jurnalistikaning alohida tarmog'i sifatida rivojlanish imkoniyatlariga ega. Kelajakda axborot texnologiyalaridan unumli foydalana oladigan jurnalistlar, insonlar uchun yanada ishonchli, tushunarli va feyklardan holi axborotni yetkazishda katta yutuqlarga erishishini kutish mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. – Тошкент: «Адолат» миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023. – Б.68.
2. Mohammed Haddad. Data Journalism. An introductory guidebook. – Doha: AlJazeera Media Institute, 2019. – P.3.
3. Howard A. The art and science of data-driven journalism. – New York: Columbia Journalism School, 2022. – P.2.
4. Garrison B. Computer-Assisted Reporting. Second edition. – New York: Routledge, 2013.
5. Fleerackers, A. et al. Open data in data journalism: opportunities and future directions // Canadian Journal of Communication, 50 (1), 2025. P. 7.  
<https://doi.org/10.3138/cjc-2023-0040>
6. Mutsvairo B. Challenges Facing Development of Data Journalism in Non-Western Societies // Digital Journalism, 7(9), 2019.
7. Mohammed Haddad. Data Journalism. An introductory guidebook. – Doha: AlJazeera Media Institute, 2019. – P.25.